

YASHASH HUQUQI TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Bobojonov Javoxir Islom o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola insonning asosiy tabiiy huquqlaridan biri bo'lgan yashash huquqi tushunchasi va uning nazariy asoslarini yoritishga bag'ishlangan. Yashash huquqi tushunchasi, tabiiy huquqlar nazariyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida, insonning tug'ma va ajralmas huquqi sifatida talqin etiladi. Ushbu maqola yashash huquqining tabiiy huquq sifatidagi o'rnini, uning qadimiy yunon va Rim falsafasidagi dastlabki shakllanish jarayonini hamda o'rta asrlardagi diniy va falsafiy qarashlar orqali rivojlanishini tahlil qiladi. Maqolada yashash huquqi tushunchasining tabiiy huquqlar doirasida qanday rivojlanganligi va ushbu tushunchaning shakllanishida qadimgi mutafakkirlarning qarashlari muhim o'rin tutgani ko'rsatiladi. Xususan, tabiiy huquqlar nazariyasida yashash huquqi insonning davlat va jamiyatdan mustaqil ravishda mavjud bo'lib, inson tabiatining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Shuningdek, maqolada keyinchalik yevropalik faylasuflar tomonidan yashash huquqining yanada kengaytirilgan talqini va ushbu huquqning ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — yashash huquqi tushunchasi va uning tabiiy huquqlar negizida shakllanish yo'llarini aniqlash hamda bu huquqning zamonaviy huquqiy tizimlarda tutgan o'rnini ko'rsatishdir. Ushbu maqola huquqshunolar, tadqiqotchilar va inson huquqlari bilan shug'ullanuvchilar uchun muhim nazariy asos yaratib, yashash huquqi tushunchasining tabiiy huquqlar doirasidagi rivojlanishi va ahamiyati haqida chuqurroq tasavvur beradi.*

Kalit so'zlar: *yashash huquqi tushunchasi, tabiiy huquqlar, qadimiy huquqiy tizimlar, yunon va Rim falsafasi, inson huquqlari, o'rta asr falsafasi.*

KIRISH

Yashash huquqi insoniyat tarixidagi eng qadimgi va ajralmas huquqlardan biri bo'lib, u inson huquqlarining poydevori sifatida talqin etiladi. Ushbu huquq har bir insonning tug'ma va o'z-o'zidan berilgan, ya'ni tabiiy huquqi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, inson o'zining mavjudligi orqali unga ega bo'ladi. Yashash huquqi nafaqat insonning jismoniy hayotini himoya qiladi, balki uning erkinlik, qadr-qimmat va farovonlik kabi boshqa barcha huquqlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Insonning yashashga bo'lgan huquqi inson huquqlari tizimining markazida turgan holda davlat va jamiyatning unga nisbatan hurmat va e'tibor ko'rsatish zarurligini anglatadi. Shu bois, yashash huquqi qadimiy falsafiy qarashlardan tortib zamonaviy huquqiy tizimlargacha davom etgan rivojlanish jarayonida asosiy o'ringa ega bo'lgan va u ko'pgina konstitutsiyaviy va xalqaro huquqiy me'yorlarda mustahkamlangan.

Maqolaning tadqiqot maqsadi – yashash huquqi tushunchasi, uning tabiiy huquqlar nazariyasidagi o'rnini va rivojlanish bosqichlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqolada qadimiy davrlardan boshlab yashash huquqi tushunchasining qanday shakllanganligi, uning huquqiy tizimlarda qanday mustahkamlanganligi haqida batafsil tahlil keltiriladi. Shu bilan birga, maqola orqali yashash huquqining zamonaviy huquqiy tizimlarda davlat va jamiyat uchun o'rnini va ahamiyati yoritiladi.

Metodologiya.

Maqolada yashash huquqi tushunchasini tadqiq etishda turli metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Bu metodlar yashash huquqining tarixiy rivojlanishini, uning nazariy asoslarini yoritishga yordam beradi. Quyidagi asosiy metodlar ushbu tadqiqotning ilmiy asosini mustahkamlash uchun tanlangan:

Tarixiy-huquqiy tahlil metodi: yashash huquqi tushunchasining qadimiy davrlardan zamonaviy huquqiy tizimlargacha bo'lgan rivojlanishini tahlil qilishda tarixiy-huquqiy yondashuvdan foydalaniladi. Bu metod yordamida qadimgi yunon va Rim davridagi tabiiy huquqlar nazariyasi, o'rta asrlardagi diniy yondashuvlar va zamonaviy huquqiy tizimlardagi o'zgarishlar bosqichma-bosqich o'rganiladi. Tarixiy-huquqiy metod orqali yashash huquqining huquqiy tizimlarda qanday rivojlanganligi va shakllanganligi ko'rsatiladi. Ushbu yondashuvning qo'llanilishi turli davr va madaniyatlarda yashash huquqining ahamiyati qanday o'zgarганиni aniqlashga yordam beradi.

Normativ metod: yashash huquqi tushunchasining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishda normativ metod qo'llaniladi. Ushbu metod yordamida huquqiy me'yorlar va tamoyillar tahlil qilinib, yashash huquqining davlat tomonidan kafolatlanishi va hurmat qilinishi zarurligi qayd etildi. Bu metod huquqiy normalarning amaliy ahamiyatini, ularning davlat tomonidan amalga oshirilishiga asos yaratadi.

Ushbu metodologik yondashuvlar yordamida maqolada yashash huquqining tarixiy taraqqiyoti, uning tabiiy huquqlar nazariyasidagi o'rni va zamonaviy huquqiy tizimlarda davlat tomonidan himoyalaniishi kabi jihatlar aniqlandi.

Muhokama va Natijalar

Yashash huquqi inson huquqlarining ajralmas va asosiy qismi sifatida talqin etilib, barcha huquqlar tizimining poydevorini tashkil qiladi. Bu huquq insonning tabiati va uning mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, inson tug'ilishi bilan unga ega bo'ladi. Yashash huquqi boshqa barcha huquqlar va erkinliklarning amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi, chunki insonning hayoti himoyalans ekan, u boshqa huquqlarni ham to'liq amalga oshira olmaydi. Shu sababli, yashash huquqi inson hayotining asosi va boshqa huquqlar bilan uzviy bog'liq tushuncha sifatida ko'riladi. Bu tushuncha huquqshunoslik, falsafiy qarashlar doirasida turli xil nazariy asoslarda izohlanib, tarixiy rivojlanish jarayonida keng tahlil qilingan.

Yashash huquqi tushunchasi insonning o'zining mavjudligi va tabiati bilan bog'liq bo'lib, davlat tomonidan berilmaydi, balki tug'ma huquq sifatida e'tirof etiladi. Bu huquq tabiiy huquqlar tizimining o'zak qismi sifatida qadimdan tan olinib, insonning yashash huquqi davlat yoki jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan va qo'ldan chiqarilmaydigan huquq sifatida ko'riladi. Yashash huquqi bu borada insonning ajralmas huquqi sifatida talqin etilib, uning tabiiy huquqlardan kelib chiqadigan va tug'ma huquqiy qadriyat sifatida qaralishi ushbu huquqning universalligi va umumiyligidan dalolat beradi.

Tabiiy huquqlar nazariyasiga ko'ra, yashash huquqi insonning mavjudligi va aql-idrokka asoslangan huquq sifatida ko'riladi. Bu nazariya insonning davlat yoki jamiyatdan mustaqil ravishda huquqlarini himoya qilish zaruratini tan oladi. Aristotel, Gugo Grotsiy, Jon Lokk, Tomas Gobbs kabi mashhur faylasuflar yashash huquqini asosiy tabiiy huquq sifatida qabul qilishgan va bu huquqning davlatdan mustaqilligini qayd etishgan. Aristotel

insonning tabiiy huquqlariga nisbatan tushunchalarni birinchi marta ilgari surgan bo'lsa, Gugo Grotsiy tabiiy huquqlarni mustahkamlashda e'tibor qaratgan. Ular inson huquqlarining davlat va jamiyatdan mustaqilligini va insonning tug'ma huquqlarga ega ekanligini ta'kidlagan.

Yashash huquqi tushunchasi qadimdan turli falsafiy yondashuvlarda ko'rib chiqilib, u davlat va jamiyat tomonidan beriladigan emas, balki tabiiy va ilohiy qadriyat sifatida qabul qilingan. Rim davrida esa bu huquq insonning ijtimoiy va shaxsiy hayotini himoya qilish zarurati sifatida ko'rib, davlatning ushbu huquqni hurmat qilishi lozimligi qayd etilgan. Ushbu davrda yashash huquqining asosi insonning tabiiy mavjudligidan kelib chiqishi va uning o'z-o'zini himoya qilish ehtiyojiga bog'liq deb talqin qilingan.

O'rta asrlarda yashash huquqi diniy qarashlar orqali yanada chuqurroq tushunilgan. Foma Akvinskiy yashash huquqini ilohiy berilgan huquq sifatida e'tirof etib, uning Xudoning irodasiga asoslanganligi va inson hayotini saqlash zarurligini ta'kidlagan. Islom ta'limotida ham yashash huquqi oliy qadriyat sifatida tan olinib, insonning hayoti Xudo tomonidan berilgan ne'mat sifatida qaraladi va uni muhofaza qilish lozimligi ko'rsatilgan. Ushbu diniy qarashlar yashash huquqini davlat va jamiyat tomonidan himoya qilish zarurligini ko'rsatadi, chunki hayot ilohiy qadriyat sifatida qaralgan.

XVIII asrda esa yashash huquqiga ilmiy qarashlar orqali yondashuv shakllangan. Jon Lokk insonning yashash huquqini davlatdan ajralmas huquq sifatida ko'rib, davlatning vazifasi insonlarning yashash huquqini himoya qilish ekanligini ta'kidlagan. Lokkning yondashuvi demokratiyaning shakllanishida asosiy rol o'ynab, davlat va inson huquqlari o'rtasidagi munosabatni belgilab berdi. Tomas Gobbs esa inson tabiatidagi "hamma hamma bilan urushda" holatini qayd qilib, insonlarning xavfsizligini ta'minlash uchun yashash huquqini himoya qilish zarurligini va bunda davlatning muhim o'ringa egaligini ilgari surdi. Ushbu yondashuv yashash huquqini nafaqat tug'ma huquq sifatida, balki jamiyatning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashda zaruriy element sifatida qaralishiga asos yaratdi.

Ilmiy adabiyotlarda yashash huquqi insonning hayotini saqlash va himoya qilishga qaratilgan huquq sifatida qaraladi. Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlar va milliy konstitutsiyalar yashash huquqini oliy qadriyat sifatida e'tirof etib, davlatlardan bu huquqni ta'minlashni talab qiladi. Yashash huquqi insonning tug'ma shaxsiy huquqi sifatida qabul qilinib, davlatning burchi bu huquqni himoya qilishdan iborat deb ko'riladi. Xususan, XX asrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlar yashash huquqini xalqaro darajada muhofaza qilinishi lozim bo'lgan huquq sifatida tan oldi.

Ilmiy manbalarda yashash huquqi tushunchasi insonning shaxsiy huquqlari tizimining asosiy elementi sifatida qaraladi. Shuningdek, yashash huquqi jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini ta'minlab, inson huquqlari himoyasida bosh rol ni o'ynaydi. Ushbu huquqning buzilishi nafaqat jismoniy xavf tug'diradi, balki insonning qadr-qimmatiga, erkinligiga va boshqa huquqlariga ham tahdid soladi. Shu sababli, ilmiy adabiyotlarda yashash huquqi insonning erkin hayot kechirish, o'z imkoniyatlarini rivojlantirish va jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarining ajralmas sharti sifatida ko'riladi.

Bugungi kunda yashash huquqi zamonaviy huquqiy tizimlarda nafaqat huquqiy, balki axloqiy va ijtimoiy majburiyat sifatida qaraladi. Ko'plab davlatlarning konstitutsiyalari yashash huquqini oliy qadriyat sifatida tan oladi va uni davlatning fuqarolarga nisbatan asosiy mas'uliyati deb belgilaydi. Shu bilan birga, zamonaviy huquqiy tizimlarda yashash huquqining buzilishi inson huquqlari buzilishining eng og'ir shakllaridan biri sifatida ko'riladi. Masalan, o'lim jazosi va qiynoqlarga qarshi kurashish masalalarida yashash huquqi davlatning inson hayotini himoya qilish majburiyatini belgilaydi.

Yashash huquqining zamonaviy talqini inson hayotining oliy qadriyat sifatida himoyalanihini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlarni yaratishga asos bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda yashash huquqini ta'minlashda davlatning burchlari keng muhokama qilingan. Xususan, davlat tomonidan fuqarolarni har qanday tahdiddan himoya qilish, ularning yashash uchun zarur sharoitlarini yaratish va yashash huquqini cheklovchi har qanday harakatga qarshi kurashish zaruriyati ta'kidlangan.

Yashash huquqi insoniyatning eng qadimiy va tabiiy huquqlaridan biri sifatida qadrlanib, uning ilmiy va nazariy tahlili bu huquqning davlat va jamiyat uchun qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Ushbu huquq inson tabiatidan kelib chiqadigan ajralmas huquq sifatida ko'rib, uning buzilishi inson qadr-qimmatiga tahdid soladi. Qadimgi yunon va Rim falsafasidan boshlab o'rta asrlardagi diniy qarashlar va XVIII asrdan boshlab zamonaviy yondashuvlarga qadar yashash huquqi davlat va jamiyat uchun o'ziga xos axloqiy va huquqiy majburiyatlarni yaratgan. Shu bois, bugungi zamonaviy huquqiy tizimlarda yashash huquqi markaziy qadriyat sifatida himoya qilinishi lozim.

Xulosa

Mazkur maqola yashash huquqi tushunchasi va uning tarixiy, falsafiy va huquqiy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, inson huquqlari tizimida ushbu huquqning o'ziga xos o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi.

Yashash huquqi zamonaviy huquqiy tizimlarda nafaqat huquqiy, balki axloqiy va ijtimoiy burch sifatida ham qaraladi. Shu sababli, yashash huquqining himoyasi nafaqat davlat tomonidan, balki jamiyat tomonidan ham e'tirof etilishi va hurmat qilinishi zarur. Yashash huquqining huquqiy asoslari va mexanizmlari insonning farovonligini ta'minlashda, uning ijtimoiy va ruhiy rivojlanishiga sharoit yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, yashash huquqini himoya qilish davlat tomonidan fuqarolarga taqdim etilishi lozim bo'lgan asosiy kafolatlardan biri sifatida qaraladi.

Yashash huquqining zamonaviy huquqiy tizimlardagi markaziy o'rni nafaqat davlatning mas'uliyatini, balki xalqaro hamkorlik zaruratini ham ko'rsatadi. Davlatlar yashash huquqini hurmat qilishlari va uni buzilishdan himoya qilishlari lozim. Xususan, o'lim jazosi, qiynoqlarga qarshi kurash va insonlarning hayotiga nisbatan tahdidni bartaraf etish masalalari yashash huquqi tamoyillarining muhim elementlari sifatida tan olinadi. Shu nuqtai nazardan, yashash huquqi buzilishining oldini olish uchun davlatlar xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda harakat qilishlari lozim. Bu esa davlatlarning o'z zimmasidagi burchlarni to'liq anglashiga va xalqaro darajada huquqiy tartibni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maqolaning muhim natijalaridan biri shundan iboratki, yashash huquqi tushunchasi inson tabiatidan kelib chiqadigan huquqiy va axloqiy burchlar tizimini yaratishga xizmat

qiladi. Bu huquqning xalqaro hujjatlarda mustahkamlanishi davlatlar zimmasiga inson hayotini saqlash va himoya qilish majburiyatini yuklaydi. Zamonaviy huquqiy tizimlar yashash huquqini ta'minlash orqali fuqarolarining hayotiga hurmat ko'rsatib, inson qadr-qimmatini himoya qiladi. Shu bilan birga, davlatlar xalqaro me'yorlarga rioya qilgan holda yashash huquqini ta'minlashga doir choralarni ko'rishlari va bu huquqni hurmat qilishlari lozim. Shu sababli, yashash huquqi davlatlararo hamkorlik, tinchlik va adolatni ta'minlashning asosiy mezoniga aylanadi.

Yakunda aytish mumkinki, yashash huquqi inson hayotining asosiy qadriyati sifatida har bir davlat va jamiyat tomonidan tan olinishi va himoyalaniishi zarur bo'lgan huquqdir. Ushbu huquqning xalqaro huquq va milliy konstitutsiyalarda e'tirof etilishi uning universallik va ahamiyatini tasdiqlaydi. Bu huquqning samarali himoyalaniishi jamiyat va davlatning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, fuqarolar hayotini himoya qilish, ularning erkin rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamasaliyevich, Xamdamiyev Isakjan. "Insonning yashash huquqi va uning kafolatlanishi." Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 11.5 (2023): 44-45.
2. McCloskey, Henry J. "The right to life." *Mind* 84.335 (1975): 403-425.
3. Opsahl, Torkel. "The right to life." *The European system for the protection of human rights*. Brill Nijhoff, 1993. 207-223.
4. Murphy, Earl Finbar. "Has nature any right to life." *Hastings LJ* 22 (1970): 467.
5. Ramcharan, Bertrand G., ed. *The right to life in international law*. Vol. 3. Martinus Nijhoff Publishers, 1985.
6. Романовский, Г. Б. "Право на жизнь (общетеоретический аспект)." *Известия высших учебных заведений. Правоведение* 4 (2003): 180-190.
7. Бабаджанов, Исрофил Хусейнович. "Право на жизнь как абсолютная ценность." *Юридическая наука: история и современность* 7 (2012): 16-20.
8. Перевозчикова, Елена Валерьевна. "Конституционное право на жизнь и репродуктивные права человека." (2006).
9. Романовский, Г. Б. "Право на жизнь и право на самоубийство." *Медицинское право* 1 (2003): 38-42.
10. Пасмарнова, Вероника Евгеньевна. "К вопросу о понятии права на жизнь." *Наука. Общество. Государство* 4 (2014): 108-115.